

## O'ZBEKISTONDA INNOVATSION GO'YALARNING RIVOJLANISHI INNOVATOR YOSHLAR NIGOHIDA

Yoqubjonov Yusufjon Zaribjon o'g'li

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti siyosati va turizm  
fakulteti  
3-bosqich talabasi*

Bundan bir necha yil oldin “innovatsiya” so'zi ko'pchilik uchun notanish tushuncha edi. Xorijdan kirib kelib, qulog'imizga tez-tez chalina boshlagan bu atamani ahyon-ahyonda qo'llay boshladik. Ammo ko'p o'tmay — Yangi O'zbekiston islohotlari avvalida rivojlnana boshlagan zamonaviy texologiyalar va bilimlar sabab bugun “innovatsiya” til lug'atimizdagi asosiy so'zlardan biriga aylandi.

Hozirgi dunyoda innovatsion taraqqiyot modellarini joriy etish, ilg'or g'oyalar, “nou-xau” va “aqlli” texnologiyalarni eksport qilish hisobidan tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlar soni tobora ortib boryapti. Tan olishimiz kerak, ma'lum muddat mamlakatimizda bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar qoniqarli bo'lmadi. SHu bois, davlatimiz rahbari o'z lavozimiga kirishgan dastlabki yillardanoq bu yo'ldagi dolzarb muammolarni hal etishga qat'iy chog'landi.

Mamlakatimizdagi so'nggi yillardagi islohotlar har bir sohaning yangi qirralarini ochmoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda ixtiolar, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g'oyalar, texnik ishlanmalar yaratish va ularni tijoratlashirish raqobatbardosh, yuqori daromadli mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish esa mamlakatning ilmiy salohiyat darajasini yuksaltiradi.

Hozirgi davrda barcha sohalarda xalqaro hamkorlikni kengaytirmay turib, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishib bo'lmaydi. Boisi, ilmiy ishlanma va texnologik yangiliklar jamiyat hayotining barcha jabhalarini bog'lovchi mexanizmga aylanmoqda.

So'nggi yillarda ilm-fanga e'tibor tufayli ilmiy muassasalar faoliyati jadallahdi. Bir vaqtlar olim kishi haqida so'z ketsa, ko'z o'ngimizda yoshi katta insonlar gavdalanardi. Bugun esa ilmiy laboratoriyalardagi tadqiqotchilarining katta qismini yoshlar tashkil qiladi. Yosh kadrlarning ilm-fanga kirib kelishi tezlashmoqda.

O'zbekiston ulkan ilmiy salohiyatga ega mamlakat. Mazkur yo'nalishdagi xalqaro hamkorlik imkoniyatlarimiz yanada kengayishi, yuqori marralarga erishishimizga xizmat qiladi. Ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi xalqaro hamkorlik yangi ish o'rnlari yaratib, aholi farovonligi oshishi, mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bartaraf etilishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'l ochadi.

Bu borada hamkor mamlakatlarning rivojlangan soha va tarmoqlariga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Masalan, Rossiya, Italiya va Chili bilan uzumchilik va vinochilik sohasida hamkorlik kengaytirilsa, Hindiston bilan biotexnologiya va urug'chilik sohasi rivojlantiriladi. Qardosh turk xalqi bilan esa texnoparklarni rivojlantirish va axborot xurujiga qarshi kurashish ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Ilmiy va innovatsion sohalardagi xalqaro hamkorlik global innovatsion indeks ko'rsatkichlari yuqorilashi hamda mamlakatimizning global iqtisodiy makondagi nufuzini yuksaltirishda ahamiyati katta. Milliy iqtisodiyotimizning samaradorligi va mehnat unumi ilg'or innovatsion texnologiyalar asosida yanada oshib boraveradi.

Hukumatlar jahon sammiti doirasida qator shartnomalar imzolangani katta yo'limizning boshlanishidir. Ko'rgazma doirasida jami 2 million dollardan oshiq qiymatidagi tijoratlashtirilgan ilmiy ishlanmalarni eksport qilishga qaratilgan shartnomalar imzolandi. O'zbekistondan turli mamlakatlarga mazkur eksport shartnomalariga ko'ra parhezbop moy mahsulotlari, metallurgiya sohasida qo'llaniladigan bentonit granulalar, qurilish materiallari va boshqa mahsulotlar etkazib beriladi. Mazkur mahsulotlarning barchasi yurtimiz olimlari tomonidan yaratilgan raqobatbardosh tovarlardir.

Joriy yilda hukumatlar oldida turgan muammolarni o'rganish, kelgusi 10 yil ichida ularni hal etish imkoniyatlarini aniqlash hamda hukumat va xususiy sektor vakillarini birlashtirish maqsadida BAAda bo'lib o'tgan "World Government Summit" — Hukumatlar jahon sammitida ham yosh olimlarimiz o'z loyihalari asosida yaratgan innovatsion mahsulotlari bilan qatnashdi, xorijiy korxonalar o'rtasida qator shartnomalar imzoladi. Bu — quvonarli hol.

So'nggi yillarda dunyoda texnologiyalar jadal rivojlanib, avvallari 10 yil davomida bajariladigan loyihalar bir yilda amalga oshadigan bo'ldi. Misol uchun, avval biror yuqumli kasallikka qarshi vaktsinalarni yaratishga o'n yil kerak bo'lgan bo'lsa, koronavirusga qarshi vaktsinalar 1 yilda yaratildi. Bu kabi ilgarilash bejiz emas. Bu — ilm-fan va innovatsiyalarga qaratilayotgan e'tibor natijasi.

Innovatsiya va startap bir-biri bilan chambarchas bog'liq atamaga aylangan. Startaplar bilan bugun mavhum g'oyalarni haqiqiy mahsulot va xizmatlarga aylantirish mumkin va bunda ilm-fanning o'rni katta. Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan topinamburdan eksportbop shifobaxsh biologik faol qo'shimcha olish bo'yicha startap loyihasi moliyalashtirilgan. Loyiha "Yashnobod" texnoparki rezidenti "Paradise flora" MChJ rahbari tomonidan amalga oshirilib, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan.

Hukumatlar jahon sammitida "Paradise flora" va Birlashgan Arab Amirliklarining "Gulf smart general" kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolandi. Mahalliy ishlab chiqaruvchimiz endi o'z mahsulotini ushbu davlatga eksport qiladi. Topinambur kukuni solingan non, shirinliklar yaratish ustida izlanishlar olib borgan yosh olimning loyihasi asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorlariga ham kirib boradi